



## **XALQ DEPUTATLARI SO‘X TUMANI KENGASHINING Q A R O R I**

Сўх тумани А.Темур -95 +998 73 462 5054

2025-yil 27-mart

VII-6-32-11-159-K/25

So‘x tumani

### **Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 30-yanvar kungi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

#### **1. Quyidagilar:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 30 yanvar kungi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666- IV-sonli qarori va asosida joriy yilning 1-fevraldan 20-martga qadar o‘tkazilgan to‘rt bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Z.Iskandarovning axboroti;

2.Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining 2024 yil 19 fevral kungi VI-83-13-11-159-K/24 sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib “Ochiq budjet” axorot portalida avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan takliflar “g‘olib” deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilliy ro‘yhat” ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyiha o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaslik;

-Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman budjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo'yilsin.

3.Tasdiqlangan Manzilliy ro'yxat asosida:

-Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Iskandarov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbaasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

-Tuman hokimligi hisobxonasi (A.Aliev) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

-Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Halq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

4.Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (A.Juraev) va tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (**Z.Iskandarov**) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq budjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

6.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (**N.Sadirkbekov**), ijrosini ta'minlash moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SAYIDMUSAYEV  
SAYIDBAXROM  
SAYIDBURXONOVICH

Xalq deputatlari So‘x tumani Kengashining  
2025-yil 27-martdagi  
VII-6-32-11-159-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**So‘x tumani bo‘yicha "Tashabbusli budjet" loyihasining 2025-yil 1 mavsumi natijalariga asosan  
jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha  
MANZILLI RO‘YXAT**

| № | G‘olib taklif ma’lumotlari |                                                                                         |                                                                                                                                                        |                                             |                                  |                         | ming.so‘m                              |                              |                                                                                                                                         |           |
|---|----------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------|----------------------------------|-------------------------|----------------------------------------|------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
|   | Taklif ID raqami           | Taklif turkumi                                                                          | Qisqacha mazmuni                                                                                                                                       | Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi) | Amalga oshiriladigan tadbir turi | To‘plagan ovozlari soni | Amalga oshirishning aniqlangan qiymati | Xaqiqatda ajratilgan mablag‘ | Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot                                                                                                  | INN       |
|   |                            |                                                                                         | Sux tumani jami                                                                                                                                        |                                             | xxx                              | 20 721                  | 13 130 000 000                         | 13 130 000 000               |                                                                                                                                         |           |
| 1 | 50389811011                | Ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlar                      | Qizilqiyog MFY aholisini tozza ichimlik suvi bilan ta‘minlash maqsadida tuman markazidagi Obishirsoy arig‘idan temir truba bilan ichimlik suvi tortish | Qizilqiyog                                  | Qurilish-ta‘mirlash              | 2 870                   | 1 500 000 000,0                        | 1 500 000 000,0              | "SUV TA‘MINOTI VA OQOVA SUV OB‘YEKTLARI QURILISHI BO‘YICHA INJINIRING KOMPANIYASI FARG‘ONA VILOYATI HUDUDiy BOSHQARMASI" UNITAR KORXONA | 305987080 |
| 2 | 50379052011                | Umumta‘lim maktablarini ta‘mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | 7-sonli umumtalim maktabining isitish tizimini yangilash xamda zamonaviy Suniy koplamali mini-futbol maydoni kurish                                    | Mulgon                                      | Qurilish-ta‘mirlash              | 2 452                   | 1 500 000 000,0                        | 1 500 000 000,0              | "FARG‘ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI                                      | 204816336 |

|   |             |                                                                                              |                                                                                                                                                                                                                                      |             |                     |       |                 |                 |                                                                                                    |           |
|---|-------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|---------------------|-------|-----------------|-----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| 3 | 50364951011 | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari      | So'x tuman Navobod MFY hududida joylashgan 26-son maktabi hududiga Zamonaviy mini futbol maydonchasi (stadion) qurish, o'qituvchilar uchun majlislar majlislar zaliquirish va maktabning mazkur binosini isitish tizimini yangilash. | Navobod     | Qurilish-ta'mirlash | 2 294 | 1 350 000 000,0 | 1 350 000 000,0 | "FARG'ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI | 204816336 |
| 4 | 50365436011 | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari      | So'x tuman Hazrati Ali MFY-da joylashgan 5-sonli maktabi hududiga qushimcha bino qurish.                                                                                                                                             | Hazrati Ali | Qurilish-ta'mirlash | 2 269 | 1 500 000 000,0 | 1 500 000 000,0 | "FARG'ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI | 204816336 |
| 5 | 50367295011 | Boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | So'x tumani Guliston MFY-da joylashgan Kasb Hunar maktabi binosining isitish tizimini yangilash, zamonaviy qozonlar urnatish, tom qismini yangilash, zamonaviy mini futbol maydonchasi qurish va yulaklarni asfallashtirish.         | Guliston    | Qurilish-ta'mirlash | 2 264 | 1 500 000 000,0 | 1 500 000 000,0 | "FARG'ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI | 204816336 |
| 6 | 50376420011 | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari      | So'x tuman Sharqobod MFY-da joylashgan 23-sonli maktabning isitish tizimini yangilash va maktab hududini beton devor bilan urash. maktab hududiga mini futbol maydonchasi qurish.                                                    | Sharqobod   | Qurilish-ta'mirlash | 2 249 | 1 500 000 000,0 | 1 500 000 000,0 | "FARG'ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI | 204816336 |

|   |             |                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |          |                     |       |                 |                 |                                                                                                    |           |
|---|-------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|---------------------|-------|-----------------|-----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| 7 | 50367730011 | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | So'x tuman Demursad MFY-da joylashgan 10-son maktabini isitish tizimini yaxshilash maqsadida 7-dona zamonaviy aqlli qozonlar urnatish, maktabning atrofini beton devor bilan urash, maktabning bush yer maydoniga kumir ombori, o'qituvchilar uchun majlislar zali, texnologiya fani va tenis stoli uchun sinf xona qurish. , | Demursad | Qurilish-ta'mirlash | 2 238 | 1 280 000 000,0 | 1 280 000 000,0 | "FARG'ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI | 204816336 |
| 8 | 50368669011 | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Sux tuman Kakir MFY-da joylashgan 28-maktabini joriy ta'mirlash va maktab hududdiga hojatxona hamda qorovulxona qurish.                                                                                                                                                                                                       | Qaqir    | Qurilish-ta'mirlash | 2 099 | 1 500 000 000,0 | 1 500 000 000,0 | "FARG'ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI | 204816336 |
| 9 | 50370821011 | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | SUX tumani kalacha mfy da joylashgan 20 maktabi xududiga kushimcha bino kurish                                                                                                                                                                                                                                                | Qa'lacha | Qurilish-ta'mirlash | 1 986 | 1 500 000 000,0 | 1 500 000 000,0 | "FARG'ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI | 204816336 |